

Quvnoq estafeta

Sport musobaqalarisiz hayotimizni tasavvur etolmaganimizdek, "Yoshlar haftaligi" ham turli xil sport o'yinlariga boy bo'ldi. 18-noyabr yakshanba kuni bo'lishiga qaramay, institutimiz sport kompleksi talabalar bilan gavjum bo'ldi. Barcha fakultetlar talabalari o'rtasida o'tkazilgan "QUVNOQ ESTAFETA" quyidagicha ko'rsatkichlarni taqdimetdi:

3- o'rin "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti jamoasiga, **2- o'rin** "Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" fakulteti jamoasiga nasib etgan bo'lsa, **birinchi o'ringa** "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti jamoasi musharraf bo'lishdi.

G'oliblar haftalik tadbir natijalariga qarab institut rahbariyati va Yoshlar ittifoqi hamda institut kasaba uyushmasi tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov